



**Ish beruvchining
"xom" ishi**

4-betda o'qing



**Advokatning ishiga
aralashish mumkin emas!**

8-betda o'qing

INSON va qonun

2023-YIL
13-IYUN
SESHANBA

№ 23 (1383)

www.hudud24.uz

@adolat_nashrlari



"ADOLAT"

**"ADOLAT" milliy
huquqiy axborot
markazi nashrlariga
obuna bo'ling!**



"Adolat
nashrlari"
telegram
kanalida
kuzating!

www.adolatmarkazi.uz [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official/) facebook.com/hudud24official/



ADLIYA SPARTAKIADASI BO'LIB O'TDI



Adliya vazirligi tizimida faoliyat yuritayotgan sportchi-yuristlarni birlashtirgan "Adliya spartakiadasi" bu gal ikkinchi marta o'tkazildi.

Spartakiadani tashkil etishdan maqsad, avvalo, vazirlik tizimida sog'lom turmush tarzini yanada kengroq targ'ib qilish, xodimlarning salomatligini mustahkamlash, ularning sport bilan muntazam shug'ullanishini rag'batlantirishdan iborat.

Mazkur spartakiadada har bir hududning eng kuchli jamoa a'zolari sportning 10 ta turi bo'yicha o'zaro bellashdi. Jamoalar arqon tortish, yengil atletika, badminton, kamondan o'q otish, darts, futbol, stol tennisi, shaxmat, shashka, armrestling sport turlari bo'yicha o'z mahoratlarini namoyish etishdi.

3 kun davom etgan musobaqalar sport prinsiplariga qat'iy rioya qilgan holda bo'lib o'tdi. Sport bellashuvlarini yuqori malakali hakamlar boshqarib bordi.

135 nafar ishtirokchi ishtirok etgan spartakiada haqiqiy sport bayramiga aylandi. G'oliblar munosib taqdirlandi.



2 QONUNCHILIKDAGI YANGILIKLAR

BILASIZMI?



Nogironligi bo'lgan shaxslar qanday lavozimlarda ishlashi mumkin?

2022-yil 31-avgustda Vazirlar Mahkamasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat faoliyatini amalga oshirishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilingan. Mazkur hujjat Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasida e'lon qilingan va 2022-yil 31-avgustdan kuchga kirgan.

Mazkur qaror bilan bir qator tartib-qoidalar tasdiqlangan. Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun tavsiya etilgan ishchi kasblar va xizmat lavozimlarining namunaviy ro'yxati (klassifikatori). Ushbu ro'yxatda 70 ta mehnat turi bo'yicha 700 ga yaqin kasb va mutaxassisliklar aks ettirilgan. Ular orasida elektr va avtotelejka haydovchisi, Prezident Xalq qabulxonasi inspektori, shifokor-mutaxassis, ekspert, tovarshunos va hokazolar bor.

Shuningdek, qarorda nogironligi bo'lgan shaxslarning faoliyat yuritishi uchun ish o'rinlari va kasblarni moslashtirish bo'yicha tavsiyalar ham berilgan.

Ushbu hujjatda nogironligi bo'lgan shaxslarning ish joylarini attestatsiyadan o'tkazish, ish joylaridagi jihozlar va mehnat qurollari bo'yicha tavsiyalar, sanitariya-maishiy va maxsus xonalarni tashkil etish va jihozlash bo'yicha tavsiyalar aks ettirilgan. Misol uchun, bino ichida nogironligi bo'lgan shaxslar foydalanadigan eshiklarni ochish-yopish moslamalari, gorizontal tutqichlar, dastaklar, jo'mraklar, uskunalar ishga soluvchi tugmalar va boshqa jihozlar balandligi 1,1 metrdan oshmasligi lozim. Shuningdek, liftlar, xollar, tamburlari va hojatxona kabinalarida "tashvish" qo'ng'iroq tugmasi va dispatcher (navbatchi) bilan gaplashish tuzilmasini o'rnatish tavsiya etiladi.

Qarorda nogironligi bo'lgan shaxslarning faoliyat yuritishi mumkin bo'lgan kasblar va lavozimlar ro'yxati hamda mehnat sharoitlari bo'yicha tavsiyalar ham tasdiqlangan. Masalan, meningit, araxnoidit, meningoenfalelit G03, ensefalit yoki ensefalomelit G05 kasalligi oqibatida nogironlik orttirgan shaxslar to'qima mebellar to'quvchi, texnik-gidrolog, tibbiy ro'yxatdan o'tkazuvchi, liftchi sifatida ishlashlari mumkin. Bunda ularga yengil jismoniy zo'riqish, asab-ruhiy zo'riqish yengil yoki o'rta, yuqning bir marotaba ko'tarish og'irligi 5 kilogramgacha (erkaklar uchun), 3 kilogramgacha (ayollar uchun) bo'lgan sharoitlarda ishlash tavsiya etiladi.

Kambag'allikni qisqartirish va Bandlikka ko'maklashish markazlariga ish so'rab murojaat qilgan nogironligi bo'lgan shaxslarning ish bilan bandligiga ko'maklashish uchun yo'llanmalar berishda tavsiya etilgan kasb va lavozimlarni inobatga olishlari lozim.

Sherzod TOLIBOV,

Marg'ilon shahar yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti, 3-darajali yurist



SAYLOV QONUNCHILIGIDAGI SO'NGGI O'ZGARISHLAR

KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLARDAN SO'NG,
SAYLOV KODEKSINING 5-MODDASIGA O'ZGARTISH
VA QO'SHIMCHALAR KIRITILDI.

Xususan, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etganlik uchun sudning hukmiga ko'ra ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda ishtirok etish huquqidan faqat qonunga muvofiq hamda sudning qarori asosida mahrum etilishi qat'iy belgilandi. Shuningdek, boshqa har qanday hollarda fuqarolarning saylov huquqini to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita cheklashga yo'l qo'yilmaydi.

MUDDATIDAN ILGARI PREZIDENTLIK SAYLOVINI TAYINLASH HUQUQI

Eng asosiy yangiliklardan biri – yangi Konstitutsiyamizga muddatidan ilgari prezidentlik saylovini o'tkazish tartibi joriy etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini tayinlash huquqi taqdim etildi.

Jumladan, Prezident Sh. Mirziyoyev "Muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini tayinlash to'g'risida"gi farmonni imzoladi. Farmonga ko'ra, Konstitutsiyaning 110 va 128-moddalari hamda Saylov kodeksining 66-moddasiga asosan 2023-yil 9-iyul kuniga muddatidan ilgari O'zbekiston Prezidenti saylovi tayinlandi.

MARKAZIY SAYLOV KOMISSIYASI A'ZOSINING VAKOLATLARI FUQAROLIKNI YO'QOTISH BILAN BIRGA TUGATILADI

Saylov kodeksining 13-moddasiga kiritilgan o'zgartirishga asosan Markaziy saylov komissiyasi a'zosining vakolatlari a'zoning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotganda yoki O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqqanda, Oliy Majlis palatalari tomonidan bevosita yoki uni o'zlikka tavsiya etgan organing taqdimnomasiga binoan tugatilishi joriy etildi.

QONUNCHILIK PALATASI TOMONIDAN O'ZINI O'ZI TARQATIB YUBORISH VAKOLATI VA SAYLOVI

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 6-maydagi Konstitutsiyaviy qonuniga asosan Saylov kodeksiga 741-modda kiritilib, Qonunchilik palatasi tomonidan o'zini o'zi tarqatib yuborish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, Qonunchilik palatasi deputatlarining saylovi Saylov kodeksiga to'liq muvofiq holda ikki oy ichida o'tkaziladi. Bunda saylovga tayyorgarlik ko'rish hamda uni o'tkazishga doir tadbirlarni amalga oshirish muddatlari Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilanadi.

SENAT TOMONIDAN O'ZINI O'ZI TARQATIB YUBORISH VAKOLATI

Saylov kodeksi 871-modda bilan to'ldirilishi oqibatida Senat tomonidan o'zini o'zi tarqatib yuborish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, Senat a'zolarining saylovi Saylov kodeksiga to'liq muvofiq holda bir oy ichida o'tkaziladi.

Senat O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tarqatib yuborilgan taqdirda esa, Senat a'zolarining saylovi uch oy ichida o'tkaziladi.

YANGI TASHKIL ETILGAN MA'MURIY-HUDUDIIY BIRLIKLARDA MAHALLIY KENGASHLAR DEPUTATLARI SAYLOVI

Saylov kodeksi 931-moddasi bilan to'ldirilishi natijasida yangi tashkil etilgan ma'muriy-hududiy birliklarda mahalliy Kengashlar deputatlari saylovi ma'muriy-hududiy birliklarni tashkil etish to'g'risida belgilangan tartibda qaror qabul qilinganidan keyin ikki oy ichida o'tkazilishi mustahkamlandi.

Yangi tashkil etilgan ma'muriy-hududiy birlikda xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlari saylovi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan, xalq deputatlari tuman, shahar kengashlari deputatlari saylovi esa tegishli xalq deputatlari viloyat Kengashi tomonidan saylov o'tkazilishiga kamida ikki oy qolganida tayinlanadi.

MAHALLIY KENGASHLARNING BO'SHAB QOLGAN DEPUTATLIK O'RI NLARI UCHUN SAYLOV VA UNI MOLIALASHTIRISH

2023-yilda Saylov kodeksining 93-moddasiga kiritilgan to'ldirishga ko'ra, mahalliy kengashlarning bo'shab qolgan deputatlik o'rinlari uchun saylov Kengash tomonidan mustaqil ravishda saylov o'tkazilishiga kamida bir oy qolganida tayinlanadi. Bunda saylovga tayyorgarlik ko'rish hamda uni o'tkazishga doir tadbirlarni amalga oshirish muddatlari Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilanadi.

Shuningdek, Saylov kodeksi 98-moddasining ikkinchi qismiga kiritilgan o'zgartirishga binoan mahalliy kengashlarning bo'shab qolgan deputatlik o'rinlari uchun saylovlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar har yili qabul qilinadigan mahalliy budjetlarning xarajatlari qismida nazarda tutilishi belgilandi.

Ilgari bunday moliyalashtirish ishlari faqat Respublika budjetidan amalga oshirilardi.

Milliy qonunchilimizdagi bunday o'zgartish va qo'shimchalar saylov jarayonlarini adolatli va xolis o'tkazishga xizmat qiladi. Mazkur islohotlar saylov sohasida ham ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash siyosati keng targ'ib etilayotganidan dalolat beradi.

Umida HAYDAROVA,

Toshkent davlat yuridik universiteti katta o'qituvchisi

Jumladan, Asosiy qonunimizning 32-moddasida qonuniy asoslarda O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lib turgan har kim mamlakat bo'yab erkin harakatlanish, turar va yashash joyini tanlash huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yildi. Har kim O'zbekistondan tashqariga erkin chiqish huquqiga ega ekanligi ham alohida ta'kidlandi. Albatta, qonunda belgilangan cheklavlar bundan mustasno. Shuningdek, ushbu moddada O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekistonga to'sqinlik qaytish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yildi.

Yuqoridagi konstitutsiyaviy norma mazmunidan ko'rinib turganidek, erkin harakatlanish huquqi shaxsning davlat hududida bir joydan ikkinchi joyga borish, turar va yashash joyini erkin o'zgartirish, mamlakatdan chiqish va uning hududiga qaytish huquqini qamrab oladi.

Mazkur huquq insonning muhim huquqlaridan biri bo'lib, u Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 13-moddasida, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 12-moddasida, shuningdek, inson huquqlari sohasidagi boshqa xalqaro hujjatlarda alohida e'tirof etilgan.

Ma'lumki, davlatimizning yaqin o'tmishida erkin harakatlanish huquqini cheklashga qaratilgan qoidalar mavjud edi. Hozirda esa, fuqarolarning Toshkent shahriga kelishi va ma'lum ishlar bilan shug'ullanishi (ishlashi, davolanishi, qarindoshlarini ko'rishi va h.) borasida cheklavlar mavjud

Yangilangan Konstitutsiyamizda shaxsning erkin harakatlanish huquqining belgilanishi davlat tomonidan beriladigan muhim kafolatlardan biri hisoblanadi.

KONSTITUTSIYAVIY huquqingizdan foydalaning!

emas. Xususan, Prezidentning 2020-yil 22-apreldagi "Doimiy propiska qilish hamda turgan joyi bo'yicha hisobga olish tartibini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga asosan, 2020-yil 1-sentabrdan boshlab:

- O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining doimiy yashash va vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tmasdan istiqomat qilish muddati 15 kun etib belgilandi;

- doimiy yashash va vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olishni rasmiylashtirish bir kun ichida amalga oshiriladigan bo'ldi;

- O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda avvalgi doimiy yashash joyidan ro'yxatdan chiqish tartibi bekor qilindi;

- O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olinishini rasmiylashtirishda pasport, uy daftari yoki xonadon karto-chkasiga ro'yxatga olish shtampini bosish amaliyoti bekor qilindi;

- doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda harbiy xizmatga majburlarning mudofaa ishlari bo'limlariga harbiy hisobdan chiqish va harbiy hisobga turish uchun bori-

shi tartibi bekor qilindi;

- O'zbekiston Respublikasi fuqarosi tomonidan soliq idoralari hisobga olingan ijara shartnomasi haqida ma'lumot taqdim etilganda vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olinishda uy-joy egasining roziligi talab qilinmaydigan bo'ldi.

Shu bilan bir qatorda, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining muayyan hududida doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tegishincha ushbu hududning boshqa manzilida istiqomat qilsa, turgan joyi bo'yicha vaqtincha ro'yxatga olinishi shart emasligi va bu holatga pasport tizimi qoidalarini buzish deb qaralmasligi kerakligi yuqorida qayd etilgan farmonda belgilab qo'yildi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, shaxsning erkin harakatlanish huquqini ta'minlashga qaratilgan chora-

tadbirlar ancha oldin boshlangan edi. Bugungi kunda esa ushbu huquq insonning boshqa shaxsiy huquq va erkinliklari qatorida Konstitutsiyamizda o'rnatilishi ilg'or mamlakatlar tajribasiga mos keladi.

Aytish joizki, mazkur huquqdan foydalanish to'siqsiz bo'lishi kerak. Demokratik jamiyatda ushbu huquq faqat milliy xavfsizlik yoki jamoat tinchligi, huquq-tartibotni saqlash, jinoyatchilikning oldini olish, sog'liq va axloqni saqlash yoki boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish maqsadidagina qonun bilan cheklanishi mumkin.


Sabohat SULTANOVA,

Toshkent davlat yuridik universiteti katta o'qituvchisi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori



Rahbar kadrlarning SALOHİYATINI OSHIRISHDA yangi bosqich

Kadrlarning boshqaruvga oid qobiliyati va malakalarini aniqlashning turli xil usullari mavjud. Bu usullar davr o'tishi bilan takomillashib bormoqda. Hozirgi davrda kadrlarni salohiyatiga ko'ra boshqaruv lavozimlariga o'tkazish ularning qobiliyati va imkoniyatlarini to'g'ri baholash hamda bu haqda to'liq ma'lumot olishga bog'liq.



Kadrlarni baholashdagi dastlabki usullar asosan ularning bilim sohasiga yo'naltirilgan edi. Ya'ni, kadrlarni, xususan, rahbarlarni baholashning boshlang'ich usullari asosan shaxsning boshqaruv sohasidagi bilim va malakalarini baholashga qaratilgan edi. Buni aniqlash maqsadida turli xil testlar qo'llanilib, bo'lajak rahbar xodimlarning xizmat va lavozim yo'riqnomalarini bilish darajasi tekshirilgan edi. Davlat va jamiyat rivojlanishi bilan davlat xizmatini bajarishda nafaqat turli muammolarni hal etish, balki insonlarga ta'sir ko'rsatish va ularda ishonch uyg'ota olish muhim omilga aylandi. Shu sababli baholashda davlat xizmatchilarining shaxsiy sifatlariga ham e'tibor qaratila boshladi.

Boshqaruvni samarali olib borishda rahbarning bilimi, ko'nikma va malakalaridan uning kompetensiyalari, ya'ni boshqaruv vazifasini uddalay olish qobiliyati yetakchi o'ringa chiqadi. Shundan kelib chiqib, rahbarning kompetentligi tashkilotni boshqarishdagi asosiy mezonga aylanishi kuzatilmoqda. Kompetensiyalarga asoslangan yondashuv orqali har bir rahbar boshqaruv funksiyalarini bajarishga loyiq shaxs sifatida e'tirof etiladi, shu bilan birga, uning liderlikka moyilligi ham tasdiqlanadi.

Davlat xizmatini rivojlantirishning hozirgi bosqichida davlat oldida turgan asosiy vazifalardan biri rivojlangan infratuzilmaga ega, ham yuqori bo'g'in uchun, ham boshqaruvning quyi va o'rta darajasidagi xodimlarni muntazam qayta tayyorlash va malakasini oshirishdan iboratdir. Davlat xizmatchilarini o'qitish yanada sifatli va davlat xizmatining ehtiyojlariga, birinchi navbatda, davlat xizmatidagi lavozimlarga qo'yiladigan malakaviy talablarga javob berishi lozim.

Hozirgi kunda internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish tobora ommalashgani, aholining ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanishi sababli ko'pgina mamlakatlarda fuqarolar ochiqlikni, davlat xizmatlari sifatli ko'rsatilishini, boshqaruv qarorlarining, samarali yechimlarini talab qilmoqda. Keyingi 20 yil ichida turli mamlakatlarda

davlat sektorida amalga oshirilgan islohotlar samaradorlikni oshirdi. Biroq rivojlangan mamlakatlarda hozirgi kunda o'sib borayotgan ehtiyojlarni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash imkonini beradigan samarali yechimlarni izlab topishda jiddiy muammolar yuzaga kelmoqda.


Turli mamlakatlarda boshqaruv salohiyatini rivojlantirish tendensiyasi turlichadir. Dunyo davlatlarida davlat xizmatining samaradorligini, shuningdek, moslashuvchanlik va hisobdorligini oshirish maqsadida uni isloh qilish uchun turli xil yondashuvlar mavjud. Shunga qaramay, eng muhim masala – davlat apparati shunday tashkil etilishi kerakki, u jamiyatning o'zgaruvchan ehtiyojlariga moslashish sharoitida o'zining izchilligi, umumiy qarashlari va qadriyatlarini saqlab qolishi lozim.

Ba'zi islohotlar dasturlari mavjud insoniy va moddiy salohiyatga, budget cheklavlari yoki davlat xizmatchilarining o'zgarishlar jarayonida ishtirok etishga tayyor bo'lishi bilan bog'liq cheklavchi omillarni to'liq hisobga olmaydi. Shuning uchun islohotlar dasturlari jamiyat farovonligi bilan birga, individual motivatsiya va qadriyatlarga sadoqatni ham hisobga olishi kerak.

Diilshod SAYIDAXMEDOV,

Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi mas'ul xodimi

4 MEHNAT HUQUQLARI ADLIYA NAZORATIDA



NAVOIY

USTAMA
muhim emas,
ammo...

Nurota tumanining olis hududlaridagi maktablarning birida ingliz tili fanidan dars beruvchi o'qituvchi A. Asadov asli buxorolik. U chekka hududdagi maktablarga malakali pedagoglarning jalb etilishiga xayrixoh bo'lgan o'qituvchilardan. "Suvliq" qishlog'ida maktabda ingliz tili fanidan o'qituvchi yo'qligidan xabar topgan bu oila ish faoliyatini olis manzildagi maktabda davom ettirishga qaror qildi. To'g'ri, ustamalar uni uy-joyidan uzoq masofada ishlashi uchun asosiy sabab emas. Eng muhimi, o'qituvchilik kasbiga hurmat, qolaversa, olis va chekka hududlardagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish istagi kuchli.

Tuman adliya bo'limi tomonidan Prezident farmonlari va hukumat qarorlari ijrosini ta'minlash bo'yicha o'tkazilgan o'rganish va tahlil jarayonida mazkur oila va tumandagi yana 5 ta tog' etaklaridagi maktabning 7 nafar o'qituvchisiga qonunchilikda belgilangan bir martalik boshlang'ich yordam va har oyda to'lanadigan uy-joy ijara haqqi pullari to'lanmagani aniqlandi. Natijada adliya aralashuvi bilan sud qarorlari orqali o'qituvchilarga jami 105 million so'm miqdorida pul mablag'i to'lab berilishi ta'minlandi. Ayni kunda tuman adliya bo'limi xodimlari tomonidan xuddi shu mazmundagi 60 dan ortiq murojaatga ijobiy yechim topilgan.


Umid SUVONOV,

Nurota tuman adliya bo'limi boshlig'i



BUXORO

O'qituvchilarning



Buxoro davlat universiteti xorijiy tillar fani o'qituvchilarining C1 darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lishiga qaramasdan, ularga ustama to'lovlari to'lanmayotganidan norozi bo'lib qilgan murojaati Buxoro viloyat adliya boshqarmasi tomonidan o'rganib chiqildi.


Prezidentning 2021-yil 19-maydagi qarori 5-bandiga ko'ra 2021-2022-o'quv yilidan boshlab, ta'lim muassasalarining kamida C1 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro tan olingan sertifikatga ega xorijiy tillar (ingliz, fransuz, nemis, ispan,

italyan, arab, xitoy, yapon, koreys, turk, fors, pushtu, dari, urdu, hind) o'qituvchilariga ularning bazaviy tarif stavkasiga nisbatan har oylik 50 foiz miqdorida qo'shimcha ustama haq to'lab berilishi ko'rsatilgan.

Yuqoridagilarga asosan viloyat adliya boshqarmasi tomonidan Buxoro davlat universitetiga taqdimnoma kiritildi hamda xodimlarga to'lanmay qolgan 50 million so'mga yaqin ustama to'lovlari to'lanishi ta'minlandi.

Halim FARMONOV,

Buxoro viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi



QORAQALPOG'ISTON

TARG'IBOTCHINING
NOROZILIGI NIMADA?

Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktab va maktabgacha ta'lim vazirligiga qarashli 5-sonli sil va nafas olish organlarining surunkali kasalliklari xavfi bo'lgan guruh bolalari uchun sanatoriya tipidagi ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim tashkilotining tarbiyachisi R.Yu. To'rtko'l tuman adliya bo'limiga murojaat qilib, Prezidentning 2020-yil 30-oktabrdagi farmoniga asosan, maktab-internatda sog'lom turmush tarzi va ommaviy sportni rivojlantirish maqsadida, tashkilotning 2022-yil 24-oktabrdagi buyrug'i bilan "Sport targ'ibotchisi" degan qo'shimcha lavozim yuklatilganini bildirgan.

Biroq yuqoridagi farmonga asosan, 2022-yil oktabrdan boshlab, o'zi ishlayotgan tashkilot tomonidan unga 20 foiz miqdorida qo'shimcha ustama


to'lab berilmay kelinayotgani va huquqlari buzilganligi bayon etilgan.

Mazkur holat adliya bo'limi tomonidan tegishli tartibda o'rganilib, yuqorida qayd etilgan maktab-internati tarbiyachisiga yuklatilgan sport targ'ibotchisi qo'shimcha lavozim vazifasi uchun 2 million 575 ming 370 so'm miqdoridagi mablag' to'lanmagani aniqlandi.

O'z navbatida, tuman adliya bo'limi tomonidan ko'rilgan huquqiy ta'sir chorasi natijasida sport targ'ibotchisi lavozimi yuklatilgan xodimga to'lanmagan ustama to'lab berilishi ta'minlandi.

Jo'rabek ISMAILOV,

To'rtko'l tuman adliya bo'limi Yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti



SIRDARYO



Ish beruvchining

"XOM" ISHI

Ish beruvchining 2023-yil 23-martdagi buyrug'iga ko'ra, Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi Xovos tuman bo'limi "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi orqali davlat ijtimoiy xizmatlari va yordamlarini ko'rsatish shobasi bosh mutaxassisi N. G'afurova bilan tuzilgan mehnat shartnomasi shtatlar qisqartirilishi sababli, Mehnat kodeksining 100-moddasi ikkinchi qismi 1-bandiga asosan, 2023-yil 23-martdan bekor qilingan.

Biroq, ish beruvchi ishni "xom" qilgan. Ushbu buyruqni rasmiylashtirish davrida shtatlar qisqartirilishi sababli, deb qayd etgan bo'lsa-da, aynan qaysi normativ-huquqiy hujjatga asosan tashkilot yoki korxonaning texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, ishlar hajmining qisqarganligi haqida izoh bermagan.

Bundan tashqari, Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi Sirdaryo viloyati boshqarmasi xodimlarining umumiy cheklangan soni bo'yicha yangilangan shtatlar jadvali Sirdaryo viloyat hokimligi iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi tomonidan 2023-yilning 1-aprel kuni, ya'ni xodimning mehnat shartnomasi bekor qilinganidan

8 kun o'tib tasdiqlangan.

Vaholanki, Mehnat kodeksining 100-moddasi birinchi qismida nomuayyan muddatga tuzilgan mehnat shartnomasini ham, muddati tugagunga qadar muddatli mehnat shartnomasini ham ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilish asosli bo'lishi shartligi ko'rsatilgan.

Ma'lumki, Mehnat kodeksining 112-moddasida mehnat shartnomasini g'ayriqonuniy ravishda bekor qilganlik yoki xodimni g'ayriqonuniy ravishda boshqa ishga o'tkazganlik uchun ish beruvchining javobgarligi belgilangan.

Yuqoridagilarga ko'ra, adliya bo'limi tomonidan N. G'afurovaning manfaatini ko'zlab, fuqarolik ishlari bo'yicha Guliston tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritildi. Sudning hal qiluv qarori bilan adliya bo'limining da'vosi qanoatlantirilib, N. G'afurova avval ishlab turgan lavozimiga ishga tiklanib, unga Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi Sirdaryo viloyat boshqarmasi hisobidan 6 million 851 ming 145 so'm ma'naviy zarar undiriladigan bo'ldi.

Ixtiyor QAYUMOV,

Xovos tuman adliya bo'limi boshlig'i



Fuqaro N. G'afurovaning Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi Sirdaryo viloyat boshqarmasi tomonidan asossiz ishdan bo'shatilganidan norozi bo'lib qilgan murojaati Xovos tuman adliya bo'limi tomonidan o'rganib chiqildi. Aniqlanishicha, N. G'afurova ish beruvchi bilan tuzilgan 2019-yildagi mehnat shartnomasiga asosan Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi Xovos tuman bo'limi bosh mutaxassisi lavozimida ishlab kelgan.

BUXORO

Buxoro viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi xodimlarining ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasi ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilinishidan norozi bo'lib qilgan murojaati viloyat adliya boshqarmasi tomonidan o'rganib chiqildi.



"TASHABBUS" BEKOR QILINDI

O'rganish jarayonida xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilish jarayonida 2023-yil 30-aprelgacha amalda bo'lgan Mehnat kodeksining 25, 101, 102, 108-moddalariga amal qilinmagani aniqlandi.

O'rganish natijasida adliya boshqarmasi tomonidan 2023-yil 26-mayda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasiga qonunbuzilish holatlarini bartaraf etish hamda xodimlarni ishga tiklash bo'yicha bajarilishi majburiy bo'lgan taqdimnoma kiritildi.

Natijada mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi buyruqlar bekor qilinib, xodimlar ishga tiklandi.

Tuyg'un AZIMOV,
Buxoro viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi

SAMARQAND

"Qo'shrabot tuman gaz" ta'minoti bo'limi tomonidan "Sangzor mo'jizasi" xususiy korxonasiga gazdan noqonuniy foydalanib kelingan degan vaj bilan 99 million 459 ming 360 so'm miqdorida asossiz qarzdorlik hisoblangan.

XUSUSIY KORXONA ASSOSSIZ QARZDAN XALOS BO'LDI



Ya'ni, iste'molchi ruxsatsiz foydalangan gaz hajmi qiymati korxona davlat ro'yxatidan o'tkazilgan vaqtdan boshlab gaz uskunasi sutkaning 24 soatida to'liq quvvat bilan ishlashi va quvurning o'tkazish imkoniyati hisobidan kelib chiqqan holda 499 kun hisoblanib, ortiqcha summa korxona bo'yniga "bosilgan".

Iste'molchining e'tiroziga asosan, 2022-yilning 16-iyun sanasida gaz ta'minoti xodimlari joyiga chiqib qayta xatlovdan o'tkazib, dalolatnoma rasmiylashtirgan hamda o'tgan yilning 30-iyun kuni "Hududgaz Samarqand" MChJ gaz ta'minoti filiali mutaxassisi A.H. tomonidan gaz hajmlari qaytadan to'g'rilanib, hisob-kitob qilingan. Bundan ko'rindiki, qariyb yuz million so'mlik qarzdorlik iste'molchiga asossiz hisoblangan.

Korxona rahbari T. Tog'ayeva Qo'shrabot tuman adliya bo'limiga adolat istab murojaat qilgach, adliya bo'limi tomonidan holat o'rganilib, ushbu qarzdorlikni bekor qilish yuzasidan Ishtixon tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo arizasi kiritildi.

Sud adliya bo'limining da'vo arizasini to'liq qanoatlantirish haqida qaror qabul qildi hamda asossiz hisoblangan 99 million 459 ming 360 so'm qarzdorlikni hisobdan chiqarish majburiyatini javobgar – "Hududgazta'minot" aksiyadorlik jamiyati zimmasiga yukladi.

Doston UBAYDULLAYEV,
Qo'shrabot tuman adliya bo'limi boshlig'i

NAMANGAN

Mingbuloq tuman adliya bo'limiga tumanning Mustaqillik mahallasida yashovchi E. Qoraboyevdan murojaat kelib tushdi. Unda muallif tuman halq ta'limi bo'limi mansabdorlarining xatti-harakatidan norozi bo'lib, amaliy yordam so'ragan.

METODISTNING HUQUQI TIKLANDI



Aniqlanishicha, E. Qoraboyev 2020-yil 3-sentabrdan buyon bo'limda axborot texnologiyalari bo'yicha yetakchi mutaxassis – metodist vazifasida ishlab kelgan. Ammo 2021-yil apreldan 2022-yil iyul oyiga qadar unga belgilangan ustama haqi to'lanmagan.

Vaholanki, Prezidentimizning 2018-yil 19-fevraldagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni 7-bandida davlat organlari va boshqa budget tashkilotlarining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini joriy qilish va rivojlantirishga mas'ul bo'lgan xodimlariga beriladigan har oylik ustama davlat budgetidan, davlat budgetidan ajratilmagan bo'lsa, ushbu tashkilotlarning budgetdan tashqari mablag'lari hisobidan xodim lavozim maoshining 100 foizidan kam bo'lmagan miqdorda to'lanishi belgilangan.

Tuman xalq ta'limi bo'limi metodistning attestatsiyadan o'tmaganini vaj qilib, ustama to'lashni to'xtatgan. Biroq xodimni attestatsiyadan o'tkazish ish beruvchining zimmasidagi vazifa ekanini unutgan. Adliya bo'limi tomonidan to'lanmagan ustama haqi hisoblanganda jami 31 million 875 ming 982 so'mni tashkil qilgan. Mazkur qonunbuzilish holatini bartaraf etish yuzasidan tuman xalq ta'limi bo'limiga taqdimnoma kiritildi.

Xalq ta'limi bo'limi mansabdorlari esa taqdimnoma ijrosini ta'minlashmadi. Shu bois, E. Qoraboyevning manfaatini ko'zlab, fuqarolik ishlari bo'yicha Namangan tumanlararo sudiga da'vo ariza kiritildi. Sudning 2023-yil 17-maydagi hal qiluv qarori bilan da'vo ariza qanoatlantirilib, E. Qoraboyev foydasiga 31 million 875 ming 982 so'm ustama haqini undirish belgilandi.

Halimjon QOBILOV,
Mingbuloq tuman adliya bo'limi boshlig'i

SURXONDARYO

Shifokorlarning USTAMASI undirib berildi

Uzun tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli "Dehqon", "Jonchekka", 77, 72 va 75-sonli oilaviy poliklinikalarda oilaviy shifokor vazifasida ishlab kelayotgan Z. Sayqonov, B. Bobonazarov, Z. Yoqubov, M. Abdurahmonov, Sh. Toshmurodov, D. Rahmonqulova hamda S. Musinjonovlar 2023-yilning yanvar oyidan buyon salohiyatli yosh shifokorlar loyihasi asosida to'lanishi lozim bo'lgan maxsus oylik ustamalarini to'lanmayotganidan norozi bo'lib, tuman adliya bo'limiga murojaat qilgan.

Aniqlanishicha, yuqorida nomlari keltirilgan shifokorlarga tibbiyot birlashmasi tomonidan 2023-yilning yanvar oyidan may oyiga qadar jami 35 million so'mlik oylik ustama puli to'lanmagan.

Vaholanki, Prezidentimizning 2022-yil 17-maydagi "Tibbiyot muassasalari xodimlarini moddiy qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi far-

monining 2-bandiga muvofiq yangi ish boshlagan salohiyatli yosh shifokorlarga 1 million so'mgacha maxsus ustama to'lab berilishi belgilangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, adliya bo'limi tomonidan tibbiyot birlashmasiga shifokorlarga to'lanishi lozim bo'lgan maxsus oylik ustama pulini to'lab berish choralari ko'rish yuzasidan taqdimnoma kiritildi.


Taqdimnoma natijasiga ko'ra, tuman tibbiyot birlashmasi tomonidan 7 nafar yosh shifokorning maxsus oylik ustamalarini to'lab berildi.

Boburbek AMONZODA,
Uzun tuman adliya bo'limi mas'ul xodimi



MILLIY TA'LIM DASTURI INSON QADRINI ULUG'LASHGA XIZMAT QILADI

Prezidentning 2023-yil 7-fevralda imzolangan "O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari sohasidagi Milliy ta'lim dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori inson huquq va erkinliklarini bekamu ko'st ta'minlashga qaratilgan galdagi muhim hujjat bo'ldi. Zero, Yangi O'zbekistonda kechayotgan keng ko'lami islohotlar hamda yangilanishlar zahirida inson va xalq manfaati yotadi.



E'tirof etish kerak, Milliy ta'lim dasturi inson huquqlari sohasidagi ta'lim bo'yicha dolzarb masalalarni har tomonlama o'rganish, ilg'or xorijiy tajribani tahlil qilish hamda keng jamoatchilik muhokamasi, xalqaro va milliy maslahatlashuvlar natijasida ishlab chiqilgan. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi ayni dastur ijrosini ta'minlashga mas'ul hisoblanadi.

Yuqoridagi dasturga binoan, 2023/2024-o'quv yilidan boshlab professional va oliy ta'lim tizimida "Inson huquqlari", "Ayollar huquqlari", "Bola huquqlari" bo'yicha tegishli o'quv va maxsus kurslar joriy etiladi. Negaki, ana shu uchala yo'nalish ko'zlangan maqsadlarni qamrab oladi.

Bundan tashqari, Milliy markaz tomonidan har yili "Inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi ta'lim va innovatsiyalar" milliy tanlovi o'tkazib boriladi. Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari, ayollar huquqlari, bola huquqlari va migrantlar huquqlari yo'nalishlarida esa faoliyati mazkur shaxslar bilan bevosita bog'liq bo'lgan tashkilotlarda o'quv kurslari va seminar-treninglar tashkilashtiriladi.

Milliy ta'lim dasturining yana bir e'tiborli jihatlaridan biri shuki, u inson huquqlari sohasida axborot berish, ma'rifat va o'qitish tizimini bosqichma-bosqich kengaytirish hamda ta-

komillashtirishga, kadrlar tayyorlash tizimini milliy qonunchilik va xalqaro standartlar talablari asosida sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. O'zbekistonda BMtning Inson huquqlari sohasida ta'lim va tarbiya to'g'risidagi Deklaratsiyasi qoidolari hamda inson huquqlari sohasidagi Jahon ta'lim dasturining to'rtinchi bosqichini amalga oshirish, aholi barcha qatlamlarining inson huquqlari va erkinliklari to'g'risidagi milliy va xalqaro standartlar to'g'risida xabardorligini, ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini yanada oshirish dasturining asosiy maqsadidir. Bunga erishish uchun esa yoshlarning, qolaversa, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xabardorligini, davlat organlari xodimlarining inson huquqlari va gender tenglik sohasidagi bilim hamda ko'nikmalarini oshirish, inson huquqlari sohasida pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash, inson huquqlari bo'yicha ta'lim sohasida fuqarolik jamiyati institutlarining faolligini, zamonaviy texnologiyalar, badiiy asarlar, ommaviy axborot vo-

sitalaridan foydalangan holda inson huquqlari sohasida ta'lim va tarbiya tizimining samaradorligini oshirish, inson huquqlari bo'yicha ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdek muhim vazifalarni amalga oshirish zarur.

Albatta, bu borada belgilangan vazifalarni amalga oshirishda yangilangan Konstitutsiyamiz muhim asosdir.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, respublikamizda 2021-2030-yillarda aholini ijtimoiy himoya qilish milliy strategiyasini ishlab chiqish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlangan. Bu esa 2022-2066-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining aynan "Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish" deb nomlangan birinchi ustuvor yo'nalishi ijrosini ham ta'minlaydi.

Rustam RUZIYEV,

O'zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti
professori, yuridik fanlar doktori.

Murod CHORIYEV,


Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra
boshlig'i, yuridik fanlar doktori.

Ma'muriy-huquqiy nizolar bevosita davlat (ma'muriy) organlari faoliyati bilan bog'liq bo'ladi. Shu bois, davlat organi ayni toifadagi nizolar bo'yicha ish yuritish jarayonida ma'muriy organ sifatida ko'riladi.

Ta'kidlash joizki, ma'muriy organlar ma'muriy huquqni boshqaruvchi subyektlar hisoblanadi. Shu munosabat bilan ular ma'muriy-huquqiy munosabatlarning dominant bo'lmagan subyektlaridan, shuningdek, ma'muriy organlar hisoblanmaydigan boshqa davlat organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlaridan ajralib turadigan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ma'muriy organ boshqa ma'muriy huquq subyektlaridan farqli o'laroq, ya'ni, boshqa shaxslar va tashkilotlar ma'muriy huquqiy munosabatlarning boshqaruvchi subyekti hisoblanadi.

Ma'muriy organ o'ziga berilgan vakolatni ma'muriy-ijtimoiy faoliyatni amalga oshirishning maxsus ma'muriy-huquqiy usullari va shakllaridan foydalangan holda amalga oshiradi. Qonun chiqaruvchi va sud faoliyatini amalga oshirishda qonun chiqaruvchi organlar hamda sudlar tomonidan qo'llanadigan huquqiy usul va shakllardan sezilarli farq qiladi.

Davlat organlarining ma'muriy huquqiy faoliyati jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan ma'muriy harakatlar sodir etish va ma'muriy hujjat qabul qilish tarzida amalga oshiriladi. Ularning ma'muriy-huquqiy faoliyati manfaatdor shaxslarga nis-



MA'MURIY HUQUQ SUBYEKTI DAVLAT ORGANLARINING BU BORADAGI O'RNI QANDAY?

2018-yil 8-yanvarda O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonunining qabul qilinishi bilan ma'muriy huquq sohasida yangi davr boshlandi. Ma'muriy tartib-taomillar davlat organlarining ma'muriy hujjatni qabul qilish bilan bog'liq bir xil protsessual qoida va standartlarini belgilaydi. Qolaversa, ma'muriy tartib-taomillar ma'muriy shikoyat va ma'muriy sudlov institutlari uchun ham alohida ahamiyat kasb etadi.

batan litsenziya, ruxsat berish, ro'yxatdan o'tkazish, davlat xizmatlarini ko'rsatish, ma'muriy ta'sir chorasini qo'llash kabi faoliyatdan iborat bo'ladi.

Ma'muriy tartib-taomillar va ularning huquqiy tartibga solinishi fuqarolar hamda tashkilotlar tomonidan o'zlarining huquq va erkinliklarini amalga oshirishda bevosita ta'sirga ega. Ma'muriy tartib-taomillar turlari ko'pligi va ularning keng tarqalganini hi-

sobga olgan holda davlat organlari bilan bo'lgan turlicha munosabatlarda ko'rsatib o'tilgan barcha subyektlar ishtirok etadi.

Qonun hujjatlarining tahlili ma'muriy tartib-taomillar huquqiy bazamizda bir xilda tartibga solinmaganini ko'rsatmoqda. Bunday holatni, davlat organi tomonidan qabul qilingan qaror haqida manfaatdor shaxslarni xabardor etish institutining tartib-

ga solish mexanizmidagi yaqqol ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasida ma'muriy tartib-taomillar amalda ko'pgina normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solingan. Shu bilan birga, huquqiy bazani shakllantirishda ma'muriy tartib-taomillarning yagona standartlari mavjud emasligi ularning amalga oshirish mexanizmlarining alohida va turli xilda o'rnatilib kelishiga sabab bo'lmoqda.

Qonun ishlab chiqilgunga qadar ma'muriy tartib-taomillarga taalluqli bo'lgan muhim normativ-huquqiy hujjatlar ushbu institutning alohida bir elementlarini ochib bergan holda yagona va tizimli yondashuvga ega emas edi. Sohada munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishning ahamiyatligi bir tarafdin davlat hokimiyati organlari va ikkinchi tarafdin ularga bo'ysunmagan ko'p sonli subyektlar, ya'ni fuqaro va tashkilotlar orasidagi o'zaro munosabatlarni huquqiy tartibga solish zaruriyati bilan izohlanadi.

Umuman olganda, "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonunda ma'muriy tartib-taomillarning asosiy prinsiplari, ma'muriy ish yuritish, ma'muriy hujjatni qabul qilish va uni ijro etish tartibi, shuningdek mazkur hujjatlar ustidan shikoyat qilish taomillari aks ettirilgan.

Xurshid QURBONOV,

Toshkent tumanlararo ma'muriy
sudi sudyasi

Yangi ijtimoiy soha obyektlari, shaharchalar, mavzalar qad rostlayotgani nafaqat binokorlarni, balki butun xalqimizni quvontirmoqda. Qolaversa, ana shu keng ko'lamli ishlar qurilish sohasini nazorat qiluvchi mas'ullar javobgarligini yanada oshirishni ham taqozo etmoqda. Negaki, respublikamizdagi bunyodkorlik ishlari muhokamasi mobaynida binolarni loyihalash, sifat nazorati bo'yicha arxitektor va loyihachilar faoliyatidagi sustkashliklar hamda sohada yig'ilib qolgan kamchiliklar yurtdoshlarimizning haqli e'tirozlariga sabab bo'lmoqda. Prezidentimiz ham ayni masalaga jiddiy e'tibor qaratgani bejiz emas.

Albatta, inson manfaatlarini ta'minlash yo'lidagi bunday harakatlar hech kimni bee'tibor qoldirmaydi. Bunda har bir hududning o'ziga xosligi, milliy urf-odatlar inobatga olinib, loyihalashdan avval jamoatchilikning nuqtaiyi nazarini, taklif-mulohazalari ham o'rganilmoqda.

Tan olish kerak, Sirdaryo viloyatida me'morchilik an'analari shakllangan emas. Shu bois, ayni paytda standart talablariga mutlaqo javob bermaydigan, eski, abgor binolar o'rnini zamonaviy turar joy majmualari, ijtimoiy soha obyektlari egallamoqda. Viloyat qurilish va kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish hududiy inspeksiya boshlig'i Inomjon Hayitboyev bilan kechgan suhbatimiz ham yangilanayotgan Sirdaryo va undagi bunyodkorliklar sifati va samarasiga bag'ishlandi.

- Avvalo, tizimdagi bugungi yangiliklar haqida gapirsangiz?

- Bugun yurtimizning boshqa hududlari qatori Sirdaryo viloyati ham ko'rgan ko'zni quvontirib, bahridilini ochadigan bunyodkorliklar maydoniga aylangan. Viloyat markazi Gulistondan tortib, to chekka qishloq va ovullargacha borgan kishi bunga amin bo'ladi. O'z navbatida, bu o'zgarishlar qurilish sohasida shaffoflikni ta'minlashni talab etmoqda. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi qurilish-vazirligi tizimida loyiha hujjatlarini rasmiylashtirish elektron tizimga o'tkazildi.



So'nggi yillarda mamlakatimizda bunyodkorlik ishlari keng quloq yozmoqda. Qurilish sanoati ham tobora rivojlanib bormoqda. Bu esa soha xodimlari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi, albatta.

QURILISH SOHASIDAGI NAZORAT

TIZIMDAGI SAMARADORLIKNI OSHIRADI

lish vazirligi tizimida loyiha hujjatlarini rasmiylashtirish elektron tizimga o'tkazildi.

Ekspertiza organlariga hujjatlarni qog'oz shaklida taqdim etishdan to'liq voz kechildi. Ushbu tizim orqali bugunga qadar Sirdaryo viloyatida 100 dan ortiq obyekt ekspertizadan o'tkazildi. Natijada ekspertiza xulosalarining sifat darajasi ham oshirildi.

Shuningdek, "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimi, ekspertiza tizimining yagona reyestri yaratilishi natijasida barcha obyektlarning loyihalari va ekspertiza xulosalari shakllantirildi. Tizimda xorijiy tajribalar ham keng qo'llanilmoqda. Xususan, Moskva qu-

rilish-muhandislik universiteti bilan hamkorlikda "Sardoba suv" omborini qayta tiklash bo'yicha ham loyihaviy yechimlar ko'rib chiqildi. Bundan tashqari, ekspertiza tashkilotlarining elektron reyestrini yo'lga qo'yish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Kelgusida ekspertiza xodimlarini ham sertifikatlashtirish ishlari joriy etilishi nazarda tutilgan.

- Qurilish sohasida nazorat tizimini tartibga solishning mexanizmlari haqida nima deya olasiz?

- Bugungi kunda qurilish sohasida davlat nazorati takomillashtirilib, kuchaytirilmoqda. Natijada qurilish ishlari boshlash uchun obyektlarni

ro'yxatdan o'tkazish hamda foydalalanishga topshirishning yangi reglamentlari joriy etildi. Hududiy inspeksiyalarga quruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri ma'muriy jarimalar qo'llash vakolati berildi.

2022-yilning o'zida 4 ming 883 ta monitoring o'tkazilib, aniqlangan 4 ming 243 ta qonunbuzilish holati bo'yicha bajarilishi majburiy bo'lgan yozma ko'rsatmalar berildi. 240 nafar mansabdor shaxsga nisbatan esa Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 99-moddasiga asosan ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirilgan.

Joriy yilda ham nazorat tadbirlari susaygani yo'q. Ya'ni, 2023-yilda 669 ta monitoring o'tkazilib, qonunbuzilish holatlari bo'yicha berilgan bajarilishi majburiy bo'lgan yozma ko'rsatmalar 651 tani tashkil etdi. 40 nafar mansabdor shaxs ma'muriy javobgarlikka tortildi. Qolaversa, 6 nafar inspektorning malakasi oshirilib, attestatsiya sertifikatlari berildi.

Bundan tashqari, inspeksiya korruptsiyaga qarshi kurashishning "Kompleans" tizimi joriy etilib, ISO xalqaro standarti bo'yicha sertifikatsiyadan o'tkazildi. Ayni paytda inspeksiya mobil sinov laboratoriyalari bilan ta'minlanib, mavjud laboratoriyalar modernizatsiya qilindi. Shuningdek, "Qurilishda davlat nazorati" MAT yaratildi.

Bu jarayonda inspektorlarning qurilishdagi nazorat ishlari onlayn kuzatish tartibi yo'lga qo'yildi. Interaktiv xarita orqali esa obyektidagi ishlar to'g'risidagi ma'lumotlar real vaqt rejimida kuzatilib boriladi va monitoring qilinadi.

Bundan tashqari, obyektlarda texnik nazorat va mualliflik nazoratini xalqaro tajriba asosida amalga oshirish yo'lga qo'yilgan. Shu bilan birga, tizimga xususiy sektorlarni jalb qilish ham rejalashtirilmoqda. Kelgusida texnik va mualliflik nazoratini maxsus sertifikatga ega bo'lgan shaxslar amalga oshiradi.

Gulijahon ASHUROVA suhbatlashdi

E'LONLAR

"Notariat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 152-moddasi va Qashqadaryo viloyati adliya boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasining 2023-yil 31-maydagi 5-son yig'ilish qaroriga asosan Qashqadaryo viloyati adliya boshqarmasi huzuridagi notarius Ismatov Taniquil Begimov Asror Xurramovichga (litsenziya KS 0023, 2020-yil 24-aprel) adliya boshqarmasi tomonidan berilgan xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi 1 oy muddatga, ya'ni 2023-yilning 5-iyun kundan 2023-yilning 5-iyul kuniga qadar, Shahrisabz shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Melikova Dilfuza Ne'matjonovna (litsenziya KS 0023, 2020-yil 24-aprel) adliya boshqarmasi tomonidan berilgan xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi 1 oy muddatga, ya'ni 2023-yilning 5-iyul kuniga qadar, Mirishkor tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xamidov Faxriddin Abduraxmonovichga (litsenziya KS 0005, 2020-yil 22-aprel) adliya boshqarmasi tomonidan berilgan xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi 1 oy muddatga, ya'ni 2023-yilning 5-iyun kundan 2023-yilning 5-iyul

kuniga qadar hamda Shahrisabz shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Melikova Dilfuza Ne'matjonovna (litsenziya KS 0023, 2020-yil 24-aprel) adliya boshqarmasi tomonidan berilgan xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi 15 kun muddatga, ya'ni 2023-yilning 5-iyun kundan 2023-yilning 20-iyun kuniga qadar to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Toshkent viloyati adliya boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasining 2023-yil 29-maydagi 21/2023-son yig'ilish bayonnomasi hamda Toshkent viloyati adliya boshqarmasining 2023-yil 30-maydagi 143-um-son buyrug'i bilan Toshkent viloyati adliya boshqarmasi tomonidan 21.04.2022-yilda Parkent tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius R.Tilovogva berilgan TS 0032-raqamli litsenziyaning amal qilishi 2023-yil 02-iyun kundan 1 oy muddatga to'xtatildi.

Toshkent viloyati adliya boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasining 2023-yil 29-maydagi 22/2023-son yig'ilish bayonnomasi hamda Toshkent viloyati adliya boshqarmasining

2023-yil 30-maydagi 142-um-son buyrug'i bilan Toshkent viloyati adliya boshqarmasi tomonidan 21.04.2022-yilda Qibray tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius M. Abduraximovga berilgan TS 0072-raqamli litsenziyaning amal qilishi 2023-yil 2-iyun kundan 1 oy muddatga to'xtatildi.

Toshkent viloyati adliya boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasining 2023-yil 29-maydagi 23/2023-son yig'ilish bayonnomasi hamda Toshkent viloyati adliya boshqarmasining 2023-yil 30-maydagi 141-um-son buyrug'i bilan Toshkent viloyati adliya boshqarmasi tomonidan 23.04.2020-yilda Chirchiq shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius D. Usmonovga berilgan TS 0079-raqamli litsenziyaning amal qilishi 2023-yil 2-iyun kundan 15 kun muddatga to'xtatildi.

Jizzax viloyati adliya boshqarmasining 2023-yil 3-iyundagi 100-um-sonli buyrug'iga asosan, advokat Abdalimov Sheroz Usarboevich "Kafolat" advokatlar hay'atiga ishga qabul qilingani munosabati bilan unga 179-sonli advokatlik guvohnomasi; Advokat Djaynakov Yigitli Abdusalikovich

"Sevinch" advokatlar hay'atiga ishga qabul qilingani munosabati bilan unga 180-sonli advokatlik guvohnomasi berildi.


Jizzax viloyati adliya boshqarmasining 2023-yil 6-iyundagi 105-um-sonli buyrug'iga asosan, advokat Kuchkanov Abdusattor Jumanovich "Kafolat" advokatlar hay'atiga ishga qabul qilingani munosabati bilan unga 181-sonli advokatlik guvohnomasi berilganligi ma'lum qilinadi.

Namangan viloyati adliya boshqarmasi jamoasi boshqarmaning Davlat xizmatlari ko'rsatilishi ustidan nazorat qilish sho'basini boshlig'i Botirjon O'rinovga otasi Tolibjon O'RINOVning vafot etganligi munosabati bilan chuqur hamdardlik bildiradi.

8 QONUN MOHIYATI

Milliy qonunchilik tendensiyasida birinchi marta advokatura-ning huquqiy maqomi konstitutsiyaviy normalar bilan mustahkamlandi. Endilikda advokatning sha'ni, qadr-qimmati, kasbiy faoliyati davlat himoyasidadir.

Advokatning faoliyatiga ARALASHISH MUMKIN EMAS!



Yangi Konstitutsiyaga advokatura-ga bag'ishlangan maxsus bob kiritilib, advokatlar faoliyatining konstitutsiyaviy kafolatlari kuchaytirildi. Konstitutsiyaning 142-moddasida advokat faoliyatiga aralashish taqiqlanishi, uning sha'ni, qadr-qimmati va kasbiy faoliyati davlat himoyasida bo'lishi va qonun bilan muhofaza qilinishi belgilab qo'yildi.

Mazkur norma advokatlik faoliyatining konstitutsiyaviy muhofazasiga oid tashkiliy va huquqiy masalalarni qamrab oladi. Jumladan, amaldagi qonunchilikka ko'ra, advokatlarining kasbiy faoliyatiga u yoki bu tarzda bevosita yoki bilvosita aralashish, ular o'z kasbiy vazifalarini bajarayotganda olgan muayyan ma'lumotlarni oshkor etishni talab qilish, shuningdek, advokatlar birlashmalarining mansabdor shaxslaridan va texnik xodim-

laridan xuddi shunday ma'lumotlarni talab qilish taqiqlanadi.

Advokat o'z kasbiy vazifalarini bajarayotganida unga biror-bir shaklda ta'sir o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi. Ta'biyki, uning faoliyatiga har qanday ta'sirlar, o'z navbatida, himoya huquqiga muhtoj shaxslarga malakali yuridik yordam berilishiga to'sqinlik qiladi.

Qonunchiligimizda advokat himoyachilik yoki vakillik vazifasini bajarayotganda o'ziga ma'lum bo'lib qolgan holatlar bo'yicha guvoh sifatida so'roq qilinishi taqiqlangan. Mazkur huquqiy mexanizm advokatning kasbiy faoliyatini qonun bilan muhofaza qilinishini qat'iy belgilaydi.

Advokat kasbiy vazifalarini bajarishi munosabati bilan qo'lga kiritgan advokatlik dalillari (ashyolari), hujjatlari undan olib qo'yilishi yoki ko'zdan kechirilishi mumkin emas. Shuningdek,

advokatning yuridik yordam ko'rsatayotgan shaxslar bilan uchrashish huquqi cheklanishi ham mumkin emas.

Yangi Konstitutsiyaning 142-moddasi ikkinchi qismiga ko'ra, advokatga o'z himoyasidagi shaxs bilan monevlik va xoli uchrashish, maslahatlar berish uchun shart-sharoitlar ta'minlanishi belgilangan. Bundan shuni tushunish mumkinki, advokatlarining o'zlarining himoya ostidagi shaxslar bilan audio va videokuzatuv qurilmalari bo'lmagan maxsus xonalarda hamda begona shaxslarning ishtirokisiz o'z vaqtida va hech qanday to'siqlarsiz uchrashishi ta'minlanadi. Bunda advokat va himoya ostidagi shaxsning suhbatini uchinchil shaxslar eshitishini istisno etgan holda ularni vizual ko'rib turish imkoniyati saqlanib qolinadi.

Bundan tashqari, advokat qonunga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslarga yuridik yordam ko'rsatayotgani munosabati bilan uni jinoyi, moddiy va boshqa javobgarlikka tortish yoki bunday javobgarlikni qo'llash bilan qo'rqitish mumkin emas.

Advokatura – fuqaro va tashkilotlarga yuridik yordam ko'rsatuvchi professional huquqiy institutdir. Advokaturaning tashkiliy mustaqilligini ta'minlash, sohada advokatlarining protsessual mustaqilligi kafolatlarni kuchaytirish bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biridir. Advokatlar faoliyatiga berilgan e'tibor esa ularning himoyasi ostidagi shaxslarning huquqlari himoya qilinishini, adolatni ta'minlaydi, albatta.

Dildora BOZOROVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti
professori

ADABIY AYVON

Flanneri O'Konnor



Otam o'qituvchi edi. Esimni tanishga ulgurmasimdan burun ulg'ayganimda men ham unga o'xshab muallim bo'lishimni va bolalarga saboq berishimni bilardim. Birovning bolasiga harf tanitasan, u o'qish-yozishni o'rganadi. Birovning bolasi sen orqali dunyoni taniydi va shu tariqa o'z bolangga aylandi. Biroq o'ylab ko'rsam, men o'quvchimga dunyoni tanitibman-u, o'zimni tanitibman. O'zimni taniganida, balki bugun o'n olti yoshli o'quvchim darsda bemavrid uyqusini buzganim uchun meni sudga berib o'tirmagan bo'larmidi? Qiziq, o'zimni oqlash uchun sudda o'z bolamga nima deyman?..

Artur UILLARD



– Axir bu qimmat guldon edi! – kuchdan qolgan qari qaynonasiga baqirdi kelin. – Nima qilib qo'yganingizni bilasizmi?

Qo'pol muomaladan kampirning ko'zlariga yosh aylandi.

Oradan ancha vaqt o'tdi. Qo'lidagi guldonni sindirgan ayol qo'rqa-pisa uning siniqlarini yig'ishtirib ola boshladi.

– Vey, o'lay! Bu nimasi?! Ajalimdan besh kun burun go'rqa tiqmoqchimisiz meni? Bo'ldi, yetar! Qiliqlaringiz hiqildog'imga keldi. Dadam Parijdan olib kelgan guldonni yerga otib sindirganingizni va bu qilmishingizni qanday yashirishga uringaningizni o'g'lingizga aytib berraman. Narsalaringizni yig'ishtiring! Qariyalar uyiga olib borib qo'yaman! Sizning joyingiz o'sha yerda!

Uqubatdan yuzlaridagi chiziqlari bililib, ko'ngli ozor chekkan ayolning yuzi g'alati tarzda qiyshayib qoldi va bir vaqtlar qaynonasiga aytgan mana shu tanish so'zlari eslab, ho'ngrab yig'lab yubordi.

“Drabblar” kitobidan

INSON
va qonun

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADILYA VAZIRLIGI

“Adolat” milliy huquqiy axborot
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0081-raqam bilan
ro'yxatga olingan

ISSN 2020-7917

Bosh
muharrir

Asliddin
ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI

Alisher Karimov
Furqat Tojiyev
Hayotjon Klichev
Sevara O'rinboyeva
Yorbek Iskandarov
Dilfuza Ergasheva

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqiriz
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Navbatchi
Gulbahor Ortixojayeva
Sahifalovchi-dizayner
Jasur Tojiyboev

Nashr indeksi: 137

“Inson va qonun” gazetasi hamda “Huquq va burch” ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter bazasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq hajmda, ofset usulida “KOLORPAK” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy

Tiraji – 3850
Buyurtma – 1737

Topshirish vaqti – 19:00
Topshirildi – 20:00

MANZILIMIZ:

100115, Toshkent sh.
Amir Temur shohko'chasi
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18
Obuna bo'limi:
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5